

BASKEDBOL SPORT TURIDAN MUSOBAQALAR O'TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH.

Xomudjonova Feruza

*Shaxrisabz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrası, Dotsent.*

Pardayeva Marjona

*Shaxrisabz davlat pedagogika instituti Jismoniy
madaniyat kafedrası 3 - kurs sirtqi bo'lim talabasi.*

Annotatsiya.

Maqola, mazmuni basketbol o'yinidan musobaqalar tashkil qilish hamda o'tkazish uslubiyatlarini takomillashtirishdan iborat.

Kalit so'zlar. Basketbol musobaqa, hakamlik, to'p, texnika, harakatlar, taktika, mashg'ulot.

Kirish.

Basketbol inglizcha basket savat, ball to'p degan ma'noni anglatadi. Bu o'yinning tarixiga yuzlanadigan bo'lsak tashkil topgan yili 1891- yilning dekabr oylari hisoblanadi.

Hozirgi kunga qadar jahon miqyosida ommabob o'yinlar hisobiga kiritiladi. Basketbol chinakam energiyaga boy o'yin. Har bir o'yinchi o'yin davomida serharakat va foat holatda bo'lishadi. Mashg'ulot jarayonida tinim bilmay mehnat qilgan o'yinchi albatta kelgusi musobaqalarda oliy o'rinlarga ega bo'ladi.

Asosiy qism.

Basketbol o'yinida musobaqalar o'tkazishning o'z tartib qoidalari mavjud. Bu qoidalar asosida o'yin haqqoniy va shaffof tarzda o'tkaziladi. Hamda, shu tartibda hakamlar musobaqa asosiy qismi hisoblanadi va hech bir musobaqa hakamsiz o'tmaydi. Basketbol musobaqasi hakamlari : bosh hakam, musobaqaning bosh kotibi, sekundamerchi hakam, axborotchi hakamlardan iborat.

Bosh hakam. Hakamlar hay'atiga rahbarlik qiluvchi hakam - bosh hakam hisoblanadi. Musobaqa boshlanishidan avval bosh hakam barcha hakamlarni yig'adi va har bir hakamga vazifa belgilaydi hamda musobaqa boahidan to tugagunga qadar qay tartibda o'tishini nazorat qilib boradi. Boshqa hakamlar esa bosh hakamning gaplariga so'zsiz rioya qilishadi.

Musobaqaning bosh kotibi. Musobaqaning bosh kotibi, o'yinda qur'a tashlash, hakamlar yig'indisining bayonnomasini, musobaqa hujjatlari va shubga uxshash barcha yozma ishlarni bajarib boradi.

Sekundamerchi hakam. Sekundamerchi hakam o'yin vaqtlarini, maydondagi o'yinchilarga, hakamlarga va tomoshabinlarga vaqt tog'risida ma'lumot berib turadi.

Axborotchi hakam. Axborotchi hakam musobaqalar o'tkazilish tartibini e'lon qiladi va musobaqani o'tkazilishini tushuntirib boradi.

Musobaqa tibbiy xizmati. Musobaqa tibbiy xodimi musobaqa boshlangundan tugagunga qadar o'yinchilar, hakamlar va tomoshabinlar sog'ligini nazorat qilib turadi.

Xulosa.

Musobaqada asosiy o'rinni hakamlar tashkil qiladi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Sababi musobaqaning qanday o'tiahi shu hakamlarga bog'liq hisoblanadi. Hakamlar qay darajada o' yinni shaffof tarzda olib borsa o'yin ham ajoyib tus olib boraveradi. Yuqorida basketbol o'yinida ishtiroj etuvchi barcha hakamlar va ularning vazifalari keltirilgan. Shu tariqa har bir musobaqa hakamlar nazorati ostida kechadi, va o'yinchilar ham mashg'ulot jarayonida puxta atayyorlanib bor kuch imkoniyatlarini o'yin maydonida ko'rsatishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1) G'aniyeva F. V. „, Basketbol“.
- 2) Rasulev A. T. Ismatullayev X. A. G'aniyeva F. V., Basketbol o'yinida hakamlarning joylashishi va ularning o' zaro harakatlari ".
- 3) Rasulev A. T. „, Basketbol“.